

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.FM.10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

XALXADJAYEV BAXTIYOR BATIROVICH

**TO‘RTINCHI TARTIBLI IKKINCHI TUR ARALASH TIPDAGI
TENGLAMA UCHUN TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR**

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2026

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in Physical
and Mathematical Sciences**

Xalxadjayev Baxtiyor Batirovich

To'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun to'g'ri va teskari
masalalar..... 3

Халхаджаев Бахтиёр Батирович

Прямые и обратные задачи для уравнений смешанного типа второго рода
четвертого порядка..... 21

Khalkhadzhayev Bakhtiyor Batirovich

Direct and inverse problems for fourth order mixed-type equations of the
second kind..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.FM.10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

XALXADJAYEV BAXTIYOR BATIROVICH

**TO‘RTINCHI TARTIBLI IKKINCHI TUR ARALASH TIPDAGI
TENGLAMA UCHUN TO‘G‘RI VA TESKARI MASALALAR**

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2026

Fizika - matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B 2025.3.PhD/FM1348 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djamalov Sirojiddin Zuxriddinovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karimov Kamoliddin To'ychiboyevich
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Zunnunov Raximjon Temirbekovich
fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy hodim

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.FM.10.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «27» 08 soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-02, faks: (+99873) 244-44-93, e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19- uy. Tel.: (+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «12» 08 kuni tarqatildi.

(2026-yil «10» 08 da 6 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.T.Karimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., dotsent

I.U.Xaydarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., dotsent

Yu.P.Apakov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab amaliy masalalarni tadqiq etish aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni hal qilishga olib keladi. Aralash tipdagi tenglamalar nazariyasining asosiy tushunchalari matematik fizikaning klassik masalalarini tadqiq etish jarayonida shakllanib, hozirgi kunda amaliy masalalarni yechishda keng qo‘llanilmoqda. Biroq zamonaviy tabiatshunoslik muammolari yangi masalalarni sifatli qo‘yish va o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bunga nolokal masalalar sinfi yaqqol misol bo‘la oladi. So‘nggi o‘n yilliklarda xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun nolokal masalalar ko‘plab matematiklar tomonidan faol tadqiq etilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda aralash tipdagi tenglamalar uchun nolokal masalalarni o‘rganishning muhimligi ta’kidlangan. Bu masalalarning trans-tovushli gaz dinamikasi, Alfven tezligi orqali ifodalanuvchi magnitogidrodinamik jarayonlar hamda fizika va mexikaning boshqa muammolari bilan uzviy bog‘liqligi sababli, ularni o‘rganish aralash tipdagi tenglamalar nazariyasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Dunyoda so‘nggi yillarda matematik fizika tenglamalari uchun nolokal chegaraviy va teskari masalalarni qo‘yish hamda ularni tadqiq etish, shuningdek, yechish usullarini ishlab chiqishga qiziqish ortib bormoqda. Bu borada turli nolokal chegaraviy shartli masalalarni bayon qilish va o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunga qadar ushbu yo‘nalishda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilib, asosan matematik fizikaning klassik tenglamalari uchun nolokal chegaraviy va teskari masalalar yetarlicha chuqur o‘rganilgan. Shu bilan birga, ikkinchi va yuqori tartibli aralash tipdagi tenglamalar uchun nolokal chegaraviy va teskari masalalarni o‘rganish yetarli darajada rivojlanmagan. Hozirgi vaqtda fanning rivojlanishi ushbu sinf tenglamalar uchun yangi nolokal chegaraviy va teskari masalalarni qo‘yish, ularni tadqiq etish hamda samarali yechish usullarini ishlab chiqishni talab etmoqda.

Mamlakatimizda xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasi bilan uzviy bog‘langan hamda ilmiy va amaliy tadbirlarga ega bo‘lgan fundamental yo‘nalishlarni, xususan, mexanika, matematik biologiya hamda gazlar va suyuqliklar dinamikasi fanlarini rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2020–2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida matematika fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini yaxshilash, ilmiy-tadqiqotlarning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish maqsadli dasturida algebra, differensial tenglamalar va ularning tatbiqlari, chiziqsiz dinamik sistemalar, matematik modellash, stoxastik tahlil, funksional tahlil, tibbiy-biologik informatika hamda hisoblash matematikasi fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari sifatida belgilangan¹. Ushbu vazifalarni

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-son qarori

amalga oshirishda, xususan, ilmiy-tadqiqot natijalarini ilm-fanning turdosh sohalarida qo'llash maqsadida noklassik tipdagi tenglamalar, xususan, aralash tipdagi tenglamalarni yechish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi 292-son qarorida matematika sohasidagi ilmiy faoliyatning asosiy vazifalari sifatida belgilangan bo'lib, mazkur yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu dissertatsiya ishining mavzusi va tadqiqot obyekti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son, 2017-yil 17-fevraldagi PF-2789-son, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son hamda 2020-yil 7-maydagi PF-4708-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. XX asrning o'rtalaridan boshlab xususiy hosilali tenglamalar uchun nolokal chegaraviy masalalarni o'rganishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Ushbu yo'nalishdagi dastlabki tadqiqotlar qatoriga A.V. Bitsadze va A.A. Samarskiyning ishlari kiradi. Ularning ishlarida elliptik tenglamalarning ma'lum bir sinfi uchun fazoviy-nolokal masalalar qo'yilib, o'ziga qo'shma bo'lmagan spektral masalalar o'rganilgan. Keyinchalik bu masala Bitsadze-Samarskiy masalasi deb nom olgan. Nolokal chegaraviy masalalar nazariyasi A.V. Bitsadze, M.S. Salohiddinov, T.J. Jo'rayev, A.A. Dezin, A.I. Kojanov, T.Sh. Kalmenov va boshqa ko'plab olimlarning ishlarida rivojlantirilgan.

Ma'lumki, A.V. Bitsadze o'z maqolasida aralash tipdagi tenglamalar uchun Dirixle masalasining nokorrekt qo'yilganligini ko'rsatgan. Shundan kelib chiqib, Dirixle masalasi shartlarining to'g'ri ekanligini ta'minlovchi, chegarani to'liq qamrab oluvchi boshqa shartlar bilan almashtirish mumkinmi, degan tabiiy savol qo'yilgan. Aralash tipdagi tenglamalar uchun bunday nolokal chegaraviy masalalar ilk bor F.I. Frankl tomonidan gaz va aerodinamika masalalarida taklif etilgan. A.N. Terexov, S.N. Glazatov, K.B. Sabitov, M.G. Karatoprakliyev va S.Z. Djamalov ishlarida ikkinchi tartibli aralash tipdagi tenglamalar uchun nolokal masalalar o'rganilib, ularning yechimlarining mavjudligi va yagonaligi Sobolev fazolarida tadqiq qilingan.

Nolokal chegaraviy masalalarni o'rganish jarayonida ularning teskari masalalar bilan uzviy bog'liqligi aniqlangan. Xususiy hosilali tenglamalar nazariyasida teskari masalalar differensial tenglamaning yechimi bilan bir qatorda uning ayrim koeffitsiyentlari yoki o'ng tomonini aniqlashga doir masalalar sifatida qaraladi. Lokal va nolokal chegaraviy shartli ikkinchi tartibli aralash tipdagi tenglamalar uchun chiziqli teskari masalalar A.G. Megrabov, K.B. Sabitov, S.Z. Djamalov, S.G. Pyatkov va R.R. Ashurovlarning ishlarida o'rganilgan. Yuqori tartibli aralash tipdagi tenglamalari uchun lokal chegaraviy masalalar T.J. Jo'rayev, A.Sopuev, Yu.P. Apakov, S.M. Mamajanov, M.S. Salohiddinov, Dj.Amanov va

A.V.Yuldashevalarning ishlarida klassik usullar bilan, V.N.Vragov va I.Ye.Yegorovlarning ishlarida esa funksional usullar bilan o'rganilgan. Shu bilan birga, yuqori tartibli (xususan, to'rtinchi tartibli) aralash tipdagi tenglamalar uchun nolokal chegaraviy shartli to'g'ri va teskari masalalar yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ushbu dissertatsiya ishida mazkur yo'nalishdagi mavjud bo'shliqni qisman to'ldirish maqsad qilingan hamda nolokal masalalarni o'rganishda modifikatsiyalangan Galyorkin usuli, aprior baholash va " ε regulyarizatsiya" usullaridan foydalanilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zR FA Matematika instituti "Differensial tenglamalar va ularning tatbiqlari" laboratoriyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida hamda O'zR FA Matematika institutining F-FA-2021-424 "Butun va kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni yechish" mavzusidagi ilmiy granti asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi to'rtinchi tartibli ikkinchi turdagi aralash tipdagi tenglama uchun nolokal chegaraviy va chiziqli teskari masalalar nazariyasini rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

Sobolev fazolarida to'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun yarim nolokal chegaraviy masalalarning kuchsiz umumlashgan yechimlarining mavjudligi, yagonaligi, regulyarligi va silliqqligini tadqiq qilish;

Sobolev fazolarida to'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun davriy tipdagi nolokal chegaraviy masalalarning kuchsiz umumlashgan yechimlarining mavjudligi, yagonaligi, regulyarligi va silliqqligini tadqiq qilish;

Sobolevning anizotrop fazolarida to'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun yarim nolokal chegaraviy shartli chiziqli teskari masalalarning korrektiligini isbotlash;

Sobolevning anizotrop fazolarida to'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun davriy tipdagi nolokal chegaraviy shartli chiziqli teskari masalalarning korrektiligini isbotlash.

Tadqiqotning obyekti: to'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglamalar va kichik parametrli beshinchi tartibli yuklangan differensial tenglamalar sistemalaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti to'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalarni o'rganishni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotning usullari: dissertatsiyada funksional tahlil, matematik fizika, qatorlar va operatorlarning spektral nazariyasi, " ε regulyarizatsiya", modifikatsiyalangan Galyorkin usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sobolev fazolarida to'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun yarim nolokal chegaraviy masalalarning kuchsiz umumlashgan va umumlashgan regulyar yechimlarining mavjudligi, yagonaligi hamda silliqlik xossalari funksional tahlil va aprior baholash usullaridan foydalanib isbotlangan;

Sobolev fazolarida to'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun davriy tipdagi nolokal chegaraviy masalalarning kuchsiz umumlashgan va umumlashgan regulyar yechimlarining mavjudligi, yagonaligi hamda silliqlik xossalari "ε regulyarizatsiya" va modifikatsiyalangan Galyorkin usuli yordamida asoslangan;

Sobolevning anizotrop fazolarida to'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun yarim nolokal chegaraviy shartli chiziqli teskari masalalarning korrektiligi funksional tahlil usullari asosida isbotlangan;

Sobolevning anizotrop fazolarida to'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun davriy tipdagi nolokal chegaraviy shartli chiziqli teskari masalalarning korrektiligi differensial tenglamalarning yuklangan sistemalariga keltirish usuli yordamida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: davriy tipdagi nolokal va yarim nolokal chegaraviy shartli to'g'ri masalalar hamda to'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglamalar uchun chiziqli teskari masalalar o'rganilgan va takomillashtirilgan. Taklif etilgan tadqiqot usullarini turli fizik-kimyoviy, biologik, tibbiy tomografiya va seysmologik geofizik jarayonlarni o'rganishda qo'llash mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: matematik isbotlar funksional tahlil, matematik fizika, operatorlarning spektral nazariyasiga, shuningdek, matematik fikrlash va hisob-kitoblarning qat'iyligiga asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ushbu ishda olingan ilmiy natijalarni yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar va yuqori tartibli aralash tipdagi tenglamalar nazariyasini rivojlantirishda qo'llash mumkin. Xususan, bu natijalar yuqori tartibli xususiy hosilali va aralash tipdagi differensial tenglamalar nazariyasini yanada rivojlantirish uchun foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ularning fizik-kimyoviy, biologik, tibbiy va seysmologik jarayonlarni o'rganishda qo'llanilishi mumkinligida namoyon bo'ladi. Xususan, ikkinchi va yuqori tartibli aralash tipdagi tenglamalar uchun nolokal va teskari masalalarni o'rganish orqali gazodinamika, tovush tezligiga yaqin va undan yuqori bo'lgan jarayonlar, Alfven tezligi yordamida magnitogidrodinamik jarayonlar hamda boshqa fizik-mexanik jarayonlarni o'rganish va bashorat qilish mumkin bo'ladi. Bu esa jarayon parametrlarini to'g'ri tanlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglamalar uchun to'g'ri va teskari masalalar bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

nolokal chegaraviy shartlar bilan berilgan to'g'ri va teskari masalalarni yechishga oid ilmiy natijalar № NIOKTR 122041800029-5 raqamli xorijiy grant doirasidagi "Asosiy va aralash tipdagi tenglamalar uchun chegaraviy va boshqaruv masalalari hamda ularni taqsimlangan parametrli tizimlarni o'rganishga tadbirlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanilgan (Rossiya Fanlar akademiyasi Kabardino-Balkar ilmiy markazining Amaliy matematika va avtomatlashtirish instituti, 2025-yil 25-martdagi № 01/13-40 ma'lumotnomasi). Natijada, aralash tipdagi tenglamalar uchun nolokal shartlarga ega chegaraviy masalalarning

yechimlarini sonli qayta ishlash hamda ushbu masalalarning matematik modellarini yaratish imkonini bergan;

aralash tipdagi tenglamalarni tadqiq qilishda, xususan, reaksiya-diffuziya tenglamalaridan bosim taqsimoti va qanot atrofida oqim dinamikasini modellashtirishga oid ilmiy natijalar, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan № IL-21071166-sonli "Shamolning past tezligi uchun mo'ljallangan vertikal o'qli shamol turbinasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihani bajarilishida foydalanilgan (O'zFA, Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutining 2025-yil 10-dekabrda 1704-3-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Galyorkin usullari yordamida taqribiy yechimlar uchun olingan baholash usullari past tezlikdagi oqimlarni aniqroq simulyatsiya qilishga, qanotlarning shakli va joylashuvini optimallashtirishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop qilingan bo'lib, ulardan 8 tasi ilmiy maqola, shulardan 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda, 6 tasi esa O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan mahalliy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 100 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi asoslangan, dissertatsiya mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar tahlili berilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"To'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun yarim nolokal chegaraviy masalaning bir qiymatli yechilishi haqida"** deb nomlangan birinchi bobida to'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun yarim nolokal chegaraviy shartli to'g'ri masalaning kuchsiz umumlashgan yechimining bir qiymatli yechilishi, regulyar yechimning mavjudligi va yagonaligi isbotlangan, hamda umumlashgan yechimning silliqiligi o'rganilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafida, dissertatsiyaning keyingi paragraflarda qo'yilgan masalalar yechimining mavjud va yagonaligini isbotlash uchun zarur bo'lgan funksional fazolar ta'riflari, shuningdek, tegishli tengsizliklar va lemmalar keltirilgan.

Endigi vazifamiz kelgusida qo'yilgan masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan

ba'zi funksional fazolar va belgilashlarni kiritishimiz kerak.

Faraz qilaylik

$$G = (0,1) \times (0,T) \times (0,\ell) = Q \times (0,\ell) = \{(x,t,y); 0 < x < 1, 0 < t < T < +\infty, 0 < y < \ell < +\infty\}$$

uch o'lchamli R^3 fazoda chegaralangan parallelepiped bo'lsin.

$L_2(G)$ bilan G sohada kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalar fazosini belgilaymiz, undagi skalyar ko'paytma va normani quyidagicha kiritamiz:

$$(u,v)_0 = \int_G u v dx dt dy, \quad \|u\|_0 = \|u\|_{L_2(G)} = \left(\int_G u^2 dx dt dy \right)^{1/2}$$

Faraz qilaylik $Q = (0,1) \times (0,T)$ bo'lsin, u holda $L_2(Q)$ fazodagi normani

$$\|u\|_{L_2(Q)} = \left(\int_Q u^2 dx dt \right)^{1/2} \text{ ko'rinishda belgilaymiz.}$$

$W_2^2(Q)$ orqali Sobolev fazosini va undagi skalyar ko'paytmani

$$(u,v)_2 = \int_Q (uv + u_x v_x + u_t v_t + u_{tt} v_{tt} + u_{xt} v_{xt} + u_{xx} v_{xx}) dx dt$$

va normani

$$\|u\|_2^2 = \int_Q (u^2 + u_t^2 + u_x^2 + u_{xx}^2 + u_{xt}^2 + u_{tt}^2) dx dt,$$

ko'rinishda belgilaymiz. Xususan, $W_2^0(Q) = L_2(Q)$.

$L_p(Q), (1 \leq p < \infty)$ orqali Q sohada aniqlangan va Lebeg ma'nosida integrallanuvchi funksiyalardan iborat va chekli

$$\|u\|_{L_p(Q)} = \left(\int_Q |u|^p dx dt \right)^{1/p}$$

normaga ega bo'lgan Banach fazosini belgilaymiz.

Faraz qilaylik, $\Omega \subset \mathbb{R}^n$ yetarlicha silliq chegaraga ega bo'lgan soha va $Q = \Omega \times (0,T)$ silindrik soha bo'lsin. U holda $W_p^m(Q)$ fazo orqali barcha m -chi tartibli umumlashgan hosilalarigacha $L_p(Q)$ fazoga tegishli bo'lgan funksiyalarning Sobolev fazosi belgilanib, undagi norma quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\|u\|_{W_p^m(Q)} = \left(\int_Q \left(|u|^p + \sum_{k=0}^m \sum_{(k)} |D^{(k)} u|^p \right) dx dt \right)^{1/p},$$

bu yerda

$$D^{(k)} u = \frac{\partial^{k_0+k_1+k_2+\dots+k_n} u(x,t)}{\partial t^{k_0} \partial x_1^{k_1} \partial x_2^{k_2} \dots \partial x_n^{k_n}}, |k| = \sum_{i=0}^n k_i.$$

$C^\ell(Q) (\ell = 0,1,2,\dots)$ orqali biz Q sohada ℓ - tartibli hosilalarigacha uzluksiz bo'lgan funksiyalar fazosini belgilaymiz. Xususan,

$$C^0(Q) = C(Q), \|u\|_{C(Q)} = \max_{(x,t) \in Q} |u(x,t)|.$$

$$\text{Umumiy holda } \|u\|_{C^\ell(Q)} = \|u\|_{C(Q)} + \sum_{|k| \leq \ell} \|D^{(k)}u\|_{C(Q)}.$$

Keyinchalik, chiziqli teskari masalalarning to'g'ri qo'yilishini (korrektiligini) o'rganish uchun biz quyidagi normal $W_2^{\ell,s}(G)$ Sobolevning anizotrop fazosini aniqlashimiz kerak:

$$\|u\|_{W_2^{\ell,s}(G)}^2 = \sqrt{\frac{2}{\ell}} \sum_{k=1}^{\infty} (1 + \mu_k^4)^s \|u_k(x,t)\|_{W_2^\ell(Q)}^2, \quad (\text{A})$$

bu yerda $3 \leq s, 4 \leq \ell$ ixtiyoriy chekli musbat butun sonlar, $u_k(x,t), k=1,2,3,\dots$ funksiyalar esa, quyidagi xos funksiyalar $Y_k(y) = \{\sqrt{\frac{2}{\ell}} \sin \mu_k y\}$ va xos sonlar $\mu_k = \left(\frac{\pi k}{\ell}\right)^2, k=1,2,3,\dots$, bo'yicha $u(x,t,y)$ funksiyaning Furiye koeffitsiyentlaridir.

$W_2^\ell(Q)$ Sobolev fazosidagi norma esa quyidagicha aniqlanadi:

$$\|\mathcal{J}\|_{W_2^\ell(Q)}^2 = \sum_{|\alpha| \leq \ell} \int_Q |D^\alpha \mathcal{J}|^2 dx dt,$$

α multiindeks, D^α esa x va t o'zgaruvchilar bo'yicha umumlashgan hosila.

Ma'lumki $W_2^{\ell,s}(G)$ fazo (A) norma bilan Banach fazosini tashkil qiladi.

Turli xil aprior baholarni chiqarishda biz ko'pincha quyidagi tengsizliklardan foydalanamiz:

Gyolder tengsizligi. $\forall u \in L_p(Q)$ va $\forall v \in L_q(Q)$ bo'lsin, bu yerda $\frac{1}{p} + \frac{1}{q} = 1$.

U holda quyidagi tengsizlik o'rinli:

$$\left| \int_Q uv dx dt \right| \leq \left(\int_Q |u|^p dx dt \right)^{1/p} \left(\int_Q |v|^q dx dt \right)^{1/q}.$$

Yung tengsizligi.

$$\forall u, v \in R, \forall \sigma > 0, p, q > 1, \frac{1}{p} + \frac{1}{q} = 1 \text{ holda } |u \cdot v| \leq \frac{\sigma u^p}{p} + \frac{\sigma^{-1} v^q}{q}.$$

Koshining σ tengsizligi (Yung tengsizligining $p = q = 2$ bo'lgandagi holi).

$$\forall u, v \in R, \forall \sigma > 0, 2|u \cdot v| \leq \sigma u^2 + \frac{v^2}{\sigma}.$$

Keyinchalik chiziqli teskari masalalarni o'rganish uchun bizga Sobolevning joylashtirish teoremlaridan kelib chiqadigan quyidagi baholar kerak bo'ladi:

$$\|\mathcal{J}\|_{C^\alpha(Q)}^2 \leq c_{\alpha+2} \|\mathcal{J}\|_{W_2^{\alpha+2}(Q)}^2.$$

Bu yerda $c_{\alpha+2} (\alpha=0,1)$ – orqali turli musbat sonlarni belgilaymiz.

c_1 – orqali esa $c_1 = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{\mu_k^8}{(1+\mu_k^4)^3}$ yaqinlashuvchi qatorni belgilaymiz.

Qisqartirib akslantirish prinsipi To‘la metrik X fazoda fazo elementlarini yana shu fazo elementlariga o‘tkazuvchi A operator berilgan bo‘lsin. Bundan tashqari, X dan olingan barcha x va y lar uchun

$$\rho(A(x), A(y)) \leq \alpha \rho(x, y)$$

bo‘lsin, bu yerda $\alpha < 1$ x va y ga bog‘liq emas. U holda shunday yagona x_0 nuqta mavjudki $A(x_0) = x_0$. Bu yerda $\rho(x, y)$ – elementlar orasidagi masofa.

1-ta’rif. Agar quyidagi ikkita shart bajarilsa, A operator B fazoda qisqartirib akslantirish deb ataladi:

1) agar $\phi \in B$ bo‘lsa, u holda $A\phi \in B$, ya’ni $A: B \rightarrow B$;

2) agar ϕ_1 va ϕ_2 lar B ga tegishli ixtiyoriy ikkita elementlar bo‘lsa, u holda $\|A\phi_1 - A\phi_2\|_B \leq \rho \|\phi_1 - \phi_2\|_B$, bu yerda $\rho < 1$.

1-teorema (Banax). To‘la metrik fazoda aniqlangan har qanday qisqartirib akslantirish yagona qo‘zg‘almas nuqtaga ega.

2-teorema (Kuchsiz kompaktlik haqida). Faraz qilaylik, B – Banax fazosi va $\{x_n\}$ - normada chegaralangan ketma-ketlik bo‘lsin. U holda $\{x_n\}$ ketma-ketlikdan, B fazoning x nuqtasiga kuchsiz yaqinlashuvchi $\{x_{n_j}\}$ qisman ketma-ketlik ajratib olishimiz mumkin va uning uchun quyidagi tengsizlik o‘rinli bo‘ladi:

$$\|x\| \leq \lim_{n_j \rightarrow \infty} \|x_{n_j}\| \leq \overline{\lim_{n_j \rightarrow \infty}} \|x_{n_j}\|.$$

3-teorema. Agar ixtiyoriy $\varphi(x) \in L_2(\Omega)$ uchun $\int_{\Omega} g(x)\varphi(x)dx = 0$ o‘rinli bo‘lsa, u holda $L_2(\Omega)$ ning deyarli hamma joyida $g(x) = 0$ bo‘ladi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafida to‘rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun yarim nolokal chegaraviy masalaning $W_2^2(Q)$ Sobolev fazosidagi kuchsiz umumlashgan yechimi yagona ekanligi isbotlangan.

$Q = (0,1) \times (0,T) = \{(x,t); 0 < x < 1; 0 < t < T < +\infty\}$ sohada to‘rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi quyidagi tenglamani ko‘rib chiqamiz:

$$L_2 u = Pu + Mu = f(x,t), \quad (1)$$

bu yerda $Pu = \sum_{i=0}^4 K_i(x,t) D_t^i u$, $Mu = au_{xxxx} - bu_{xxtt} - cu_{xx}$, $D_t^i u = \frac{\partial^i u}{\partial t^i}$ ($i = \overline{0,4}$),

$D_t^0 u = u$; a, b, c har xil musbat sonlar.

Faraz qilaylik (1) tenglamaning barcha koeffitsiyentlari $\overline{Q}$ da yetarlicha silliq funksiyalar bo‘lsin, hamda ular uchun quyidagi shartlar bajarilgan bo‘lsin: $K_4(x,t) = K_4(t)$, $K_4(0) = K_4(T) = 0$, $K_{4t}(0) = K_{4t}(T)$ va barcha $x \in [0,1]$ uchun $K_i(x,0) = K_i(x,T)$, ($i = \overline{0,3}$).

(1) tenglama ikkinchi tur aralash tipdagi tenglamalar guruhiga tegishli bo‘ladi, chunki $[0,T]$ kesma ichida $K_4(t)$ funksiyaning ishorasiga t o‘zgaruvchi bo‘yicha hech qanday cheklolar qo‘yilmaydi.

Yarim nolokal chegaraviy masala. $W_2^2(Q)$ Sobolev fazosida (1) tenglamaning quyidagi chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi

$$\gamma D_t^p u|_{t=0} = D_t^p u|_{t=T}, p = 0, 1, 2 \quad (2)$$

$$u|_{x=0} = u|_{x=1} = 0, u_{xx}|_{x=0} = u_{xx}|_{x=1} = 0 \quad (3)$$

$u(x,t)$ kuchsiz umumlashgan yechimi topilsin.

Bu yerda γ noldan farqli son bo‘lib, uning qiymatiga keyinroq aniqlik kiritiladi.

Keyinchalik bizga qo‘yilgan masalani tadqiq qilish uchun, quyidagi ta’rif va yordamchi belgilashlarni kiritamiz:

$W_1(Q)$ orqali quyidagi funksiyalar sinfini aniqlaymiz:

$$W_1(Q) = \left\{ \mathcal{G} \in W_2^4(Q), \gamma D_t^p \mathcal{G}|_{t=0} = D_t^p \mathcal{G}|_{t=T}, p = \overline{0,2}; \mathcal{G}|_{x=0} = \mathcal{G}|_{x=1} = 0, \mathcal{G}_x|_{x=0} = \mathcal{G}_x|_{x=1} = 0 \right\}.$$

Endi bichiziqli formalarni aniqlaymiz: $\forall \mathcal{G} \in W_1(Q)$

$$\Lambda(u, \mathcal{G}) \equiv (Pu, \mathcal{G})_0 = (K_4 u_{tt}, \mathcal{G}_{tt})_0 - ((K_3 - 2K_{4t})u_{tt}, \mathcal{G}_t)_0 + \left(\sum_{i=0}^2 b_i D_t^i u, \mathcal{G} \right)_0,$$

bu yerda $b_i \in C^2(Q) \cap C(\bar{Q})$, $b_2(x,t) = K_{4tt} - K_{3t} + K_2$, $b_1 = K_1$, $b_0 = K_0$;

$$m(u, \mathcal{G}) \equiv (Mu, \mathcal{G}) = ((au_{xx} - bu_{tt}), \mathcal{G}_{xx})_0 - (cu_{xx}, \mathcal{G})_0.$$

2-ta’rif. Ixtiyoriy $\mathcal{G} \in W_1(Q)$ funksiya uchun quyidagi:

$$\Lambda(u, e^{-\lambda t} \mathcal{G}) + m(u, e^{-\lambda t} \mathcal{G}) = (f, e^{-\lambda t} \mathcal{G})_0, \lambda = \frac{2}{T} \ln |\gamma| > 0, |\gamma| > 1$$

tenglik bajarilsa, u holda $u(x,t) \in W_2^2(Q)$ funksiya (1)-(3) masalaning kuchsiz umumlashgan yechimi deb ataladi.

4-teorema. Faraz qilaylik (1) tenglamaning koeffitsiyentlari uchun yuqorida keltirilgan shartlar o‘rinli bo‘lsin, bundan tashqari (1) tenglamaning koeffitsiyentlari uchun quyidagi shartlar bajarilgan bo‘lsin: $K_1(x,t) > 0$ yetarlicha katta funksiya va barcha $(x,t) \in \bar{Q}$ lar uchun quyidagi tengsizliklar $-(2K_3 - 3K_{4t} + 3\lambda K_4) \geq \delta_3 > 0$, $2K_1 - K_{2t} + \lambda K_2 \geq \delta_2 > 0$, $\lambda K_0 - K_{0t} \geq \delta_1 > 0$ o‘rinli bo‘lsin, bu yerda $\lambda = \frac{2}{T} \ln |\gamma| > 0$, $|\gamma| > 1$. U holda ixtiyoriy $f(x,t) \in L_2(Q)$ funksiya uchun (1)-(3) masalaning $w_2^2(Q)$ Sobolev fazosidagi kuchsiz umumlashgan yechimi yagona va mavjud bo‘lib, uning uchun quyidagi $\|u\|_{w_2^2(Q)}^2 \leq c_i \|f\|_0^2$ aprior baho o‘rinli bo‘ladi.

Bundan keyin c_i ($i = 1, 2, \dots$) orqali har xil o‘zgarmas sonlarni belgilaymiz.

1-teorema Galyorkin, aprior baholar va “ ε regularizatsiya” usullari yordamida isbot qilingan.

Birinchi bobning uchinchi paragrafida to‘rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun yarim nolokal chegaraviy masalaning $W_2^4(Q)$ Sobolev fazosidagi umumlashgan regulyar yechimi mavjud va yagona ekanligi isbotlangan.

Q sohada to‘rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi (1) tenglama uchun (2), (3) yarim nolokal chegaraviy masalani ko‘rib chiqamiz.

Faraz qilaylik, (1) tenglamaning barcha koefitsiyentlari $\bar{Q}$ sohada yetarlicha silliq funksiyalar bo‘lsin.

3-ta’rif. (1)-(3) masalaning umumlashgan regulyar yechimi deb, $W_2^4(Q)$ Sobolev fazosidagi masalaning umumlashgan yechimiga aytiladi (ya’ni, (1) tenglamaga kiruvchi barcha umumlashgan hosilalar $L_2(Q)$ fazosiga tegishli bo‘lishi kerak bo‘ladi).

5-teorema. Faraz qilaylik (1) tenglamaning koefitsiyentlari uchun yuqorida keltirilgan barcha shartlar o‘rinli bo‘lsin, bundan tashqari, (1) tenglamaning koefitsiyentlari uchun quyidagi tengsizliklar bajarilgan bo‘lsin: ixtiyoriy $(x,t) \in \bar{Q}$, $K_1(x,t) > 0$ yetarlicha katta funksiya, $K_3(x,t) < 0$ va $\|K_3\|_{C^2(\bar{Q})}$ yetarlicha katta son, $-(2K_3 + (2j-3)K_{4t} + 3\lambda K_4) \geq \delta_3 > 0$, $(j = \overline{0,2})$ $2K_1 - K_{2t} + \lambda K_2 \geq \delta_2 > 0$, $\lambda K_0 - K_{0t} \geq \delta_1 > 0$, $\lambda = \frac{2}{T} \ln|\gamma| > 0$, $|\gamma| > 1$. U holda $\gamma f(x,0) = f(x,T)$ shartni qanoatlantiruvchi ixtiyoriy $f(x,t) \in W_2^1(Q)$ funksiya uchun (1)-(3) masalaning $W_2^4(Q)$ fazodagi yagona umumlashgan regulyar yechimi mavjud bo‘lib, uning uchuni $\|u\|_{W_2^4(Q)}^2 \leq c_2 \|f\|_1^2$ baho o‘rinli bo‘ladi.

Ushbu 5-teorema modifikatsiyalangan Galyorkin usuli, aprior baholash va “ε regulyarizatsiya” usullari yordamida isbot qilingan.

Ushbu bobning to‘rtinchi paragrafida to‘rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi (1) tenglama uchun (2), (3) yarim nolokal chegaraviy masalaning umumlashgan yechimini silliqqligi tadqiq qilingan.

Ma’lumki ushbu bobning oldingi paragrafida biz ushbu (1)-(3) masala umumlashgan regulyar yechimining yagonaligi va mavjudligi, ya’ni $u(x,t) \in W_2^4(Q)$ ni tadqiq qilgan edik.

Ushbu bobning to‘rtinchi paragrafida tenglamaning o‘ng tomoni va koefitsiyentlari uchun ma’lum shartlar bajarilganda, to‘rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi (1) tenglama uchun (2), (3) yarim nolokal chegaraviy masalaning umumlashgan yechimining silliqqligi $W_2^{m+4}(Q)$, $(m \in N \cup \{0\})$ Sobolev fazolarida o‘rganilgan.

Quyida (1) tenglamaning koefitsiyentlari yopiq $\bar{Q}$ sohada yetarlicha differensiallanuvchi funksiyalar bo‘lsin deb faraz qilamiz.

6-teorema. Faraz qilaylik, 5-teoremaning barcha shartlari bajarilgan bo‘lsin, bundan tashqari, barcha $p = 0,1,2,3,\dots,m$ va $q = 0,1,2,3,\dots,m$; lar uchun va barcha $(x,t) \in \bar{Q}$ larda $-2((K_3 + m \cdot K_{4t}) + (2j-3)K_{4t} + 3\lambda K_4) \geq \delta > 0$, $j = 0,1,2$ va har

qanday $x \in [0,1]$ uchun $D_t^{p+1} K_4|_{t=0} = D_t^{p+1} K_4|_{t=T}$; $D_t^q K_i|_{t=0} = D_t^q K_i|_{t=T}$,
 $(i=0,1,2,3)$ shartlar o'rinli bo'lsin. U holda $\gamma D_t^q f|_{t=0} = D_t^q f|_{t=T}$ shartlarni
qanoatlantiruvchi ixtiyoriy $f(x,t) \in W_2^{m+1}(Q)$ funksiya uchun (1)-(3) masalaning
 $W_2^{m+4}(Q), (m \in \mathbb{N} \cup \{0\})$ Sobolev fazolarida yechimi mavjud va yagona bo'lib,
uning uchun quyidagi baho o'rinli bo'ladi:

$$\|u\|_{W_2^{m+4}(Q)}^2 \leq c_{m+2} \|u\|_{W_2^{m+1}(Q)}^2,$$

Ushbu 6-teorema modifikatsiyalangan Galyorkin usuli, aprior baholash va "ε regularizatsiya" usullari hamda parabolik tenglama uchun nolokal masala yechimining silliqigidan foydalangan holda isbot qilingan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi "To'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun davriy tipdagi nolokal chegaraviy masalaning bir qiymatli yechilishi haqida" deb nomlangan bo'lib, modifikatsiyalangan Galyorkin usuli, aprior baholash va "ε regularizatsiya" usullaridan foydalanib, to'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun davriy tipdagi nolokal chegaraviy masala kuchsiz umumlashgan yechimining mavjudligi va yagonaligi isbotlandi. Shuningdek, umumlashgan yechimning regularlik va silliqiligi xususiyatlari ham tadqiq qilingan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida to'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun davriy tipdagi nolokal chegaraviy masalaning kuchsiz umumlashgan yechimini mavjudligi va yagonaligi isbotlangan.

Q sohada (1) tenglama uchun quyidagi davriy tipdagi nolokal chegaraviy shartli masalani qaraymiz:

Davriy tipdagi nolokal chegaraviy shartli masala: $W_2^2(Q)$ Sobolev fazosidan (1) tenglamaning, quyidagi chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi

$$\gamma D_t^p u|_{t=0} = D_t^p u|_{t=T}; \quad p = 0, 1, 2 \quad (4)$$

$$D_x^q u|_{x=0} = D_x^q u|_{x=1}; \quad q = 0, 1, 2, 3. \quad (5)$$

kuchsiz umumlashgan $u(x,t)$ yechimi topilsin. Bu yerda γ noldan farqli son bo'lib, unga quyida aniqlik kiritiladi.

Faraz qilaylik (1) tenglamaning koeffitsiyentlari uchun 1-bob 2§ dagi shartlar bajarilgan bo'lsin.

Keyinchalik bizga qo'yilgan masalani tadqiq qilish uchun, quyidagi ta'rif va yordamchi belgilashlarni kiritamiz:

$W_2(Q)$ orqali quyidagi funksiyalar sinfini aniqlaymiz:

$$W_2(Q) = \left\{ \vartheta \in W_2^4(Q), \gamma D_t^p \vartheta|_{t=0} = D_t^p \vartheta|_{t=T}, p = \overline{0, 2}; D_x^q \vartheta|_{x=0} = D_x^q \vartheta|_{x=1}; q = 0, 1, 2, 3. \right\}.$$

4-ta'rif. Agar ixtiyoriy $\vartheta \in W_2(Q)$ funksiya uchun quyidagi:

$$\Lambda(u, e^{-\lambda t} \vartheta) + m(u, e^{-\lambda t} \vartheta) = (f, e^{-\lambda t} \vartheta)_0, \quad \lambda = \frac{2}{T} \ln |\gamma|, \quad |\gamma| > 1$$

integral tenglik bajarilsa, u holda $u(x,t) \in W_2^2(Q)$ funksiya (1), (4), (5) masalaning kuchsiz umumlashgan yechimi deb ataladi.

7-teorema. Faraz qilaylik (1) tenglamaning koeffitsiyentlari uchun yuqorida sanab o'tilgan shartlar o'rinli bo'lsin, bundan tashqari (1) tenglamaning koeffitsiyentlari uchun quyidagi shartlar bajarilgan bo'lsin: $K_1(x,t) > 0$ yetarlicha katta funksiya bo'lsin, va barcha $(x,t) \in \bar{Q}$ lar uchun $-(2K_3 - 3K_{4t} + 3\lambda K_4) \geq \delta_3 > 0$, $2K_1 - K_{2t} + \lambda K_2 \geq \delta_2 > 0$, $\lambda K_0 - K_{0t} \geq \delta_1 > 0$ tengsizliklar o'rinli bo'lsin. Bu yerda $\lambda = \frac{2}{T} \ln|\gamma| > 0$, $|\gamma| > 1$. U xolda ixtiyoriy $f(x,t) \in L_2(Q)$ funktsiya uchun (1),(4),(5) masalaning Sobolev fazosidagi umumlashgan yagona yechimi mavjud bo'ladi va uning uchun quyidagi aprior baho o'rinli:

$$\|u\|_{W_2^2(Q)}^2 \leq c_1 \|f\|_0^2.$$

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida to'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun davriy tipdagi nolokal chegaraviy masalaning umumlashgan regulyar yechimini mavjudligi va yagonaligi tadqiq qilingan.

5-ta'rif. (1), (4),(5) masalaning umumlashgan regulyar yechimi deb, masalaning $W_2^4(Q)$ Sobolev fazosidagi umumlashgan yechimiga aytiladi. (ya'ni, (1) tenglamaga kiruvchi barcha umumlashgan hosilalar $L_2(Q)$ fazosiga tegishli bo'ladi.)

8-teorema. (1) tenglamaning koeffitsiyentlari uchun yuqorida sanab o'tilgan shartlar o'rinli bo'lsin, bundan tashqari, (1) tenglama koeffitsiyentlari uchun quyidagi tengsizliklar bajarilgan bo'lsin: Ihtiyoriy $(x,t) \in \bar{Q}$, $K_1(x,t) > 0$ yetarlicha katta funksiya, $K_3(x,t) < 0$ va $\|K_3\|_{C^2(\bar{Q})}$ yetarlicha katta son, $-(2K_3 - 3K_{4t} + 3\lambda K_4) \geq \delta_3 > 0$, $2K_1 - K_{2t} + \lambda K_2 \geq \delta_2 > 0$, $\lambda K_0 - K_{0t} \geq \delta_1 > 0$ tengsizliklar bajariladigan bo'lsin, bu yerda $\lambda = \frac{2}{T} \ln|\gamma| > 0$, $|\gamma| > 1$. U xolda ixtiyoriy $f(x,t) \in L_2(Q)$ funktsiya uchun (1),(4),(5) masalaning $W_2^4(Q)$ Sobolev fazosida umumlashgan yagona regulyar yechimi $u(x,t)$ mavjud bo'ladi va uning uchun quyidagi aprior baho o'rinli:

$$\|u\|_{W_2^4(Q)}^2 \leq c_2 \|f\|_1^2$$

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafida to'rtinchi tartibli ikkinchi tur aralash tipdagi tenglama uchun davriy tipdagi nolokal chegaraviy masalaning umumlashgan yechimini silliqiligi o'rganilgan.

